

## VENA KLASSIK KOMPOZITORLARI IJODI VA MUSIQIY JANRLAR (simfoniya sonata shakli,sonata)

**Surayyo Berdimurodova**

**TDPU, Ijrochilik mahorati va madaniyati**

**kafedrası o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8354025>

XVIII asrda bir qator mamlakatlar,jumladan: Italiya, Germaniya, Avstriya, Fransiya kabi davlatlarda cholg'u musiqasining yangi janr va uslublari shakllana boshladi va ushbu jarayon "Vena klassik maktabi" davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi.

Vena klassik maktabi shakllanishida Avstriyaning musiqiy folklor janri katta ahamiyat kasb etdi. Vena klassiklarining ijodi hayotiy tasavvurlarni dinamik ohanglarda ifodalaydi va bu sonata shaklida o'zining yorqin ifodasini topdi Ushbu davrda cholg'u janrlari – simfoniya, sonata, konsert va kamer ansambli, to'rt qismli sonata-simfonik sikli shakllandi. Yakka ijrochilikda fortepiano musiqasi alohida o'rin egalladi Vena klassik maktabining gullagan davri simfonik orkestr shakllanishining umumiy jarayoni - uning barqaror tarkibi, orkestr guruhlarining funksional aniqligi bilan izohlanadi.

Ushbu badiiy yo'nalish vakillari F.J.Gaydn, V.A.Motsart, L.van Bethoven kabi yorqin shaxslardan iborat bo'lib, Gaydn uslubi musiqiy janrlardagi yorqin dunyoqarashi bilan ajralib turardi. Motsart uslubi uchun lirik-dramatik uslub ko'proq xarakterli bo'lsa, Betxoven uslubi kurashning qahramonlik pafosi timsolida aks etadi..Vena klassik maktabi vakillari musiqasida xalq turmushi, atrof-muhit manzaralari, quvonchi va g'amgin o'ylar, tabiat hodisalari hamda ruhiy kechinmalar o'zining yorqin ifodasini topdi. [1]

Yuqorida ta'kidlanganidek, Vena maktabi kompozitorlari ijodida ko'plab musiqiy janrlar o'zining klassik qiyofasiga ega bo'ldi. Quyida ularni ko'rib chiqishimiz mumkin:

### **Simfoniya**

Simfoniya-cholg'u musiqasining eng murakkab ko'rinishi bo'lib, bo'lib, simfonik orkestr ijrosi uchun mo'ljallangan musiqiy janr hisoblanadi.Yunonchadan tarjima qilinganda "ohangdoshlik" ma'nosini anglatadi.

Ushbu janr XVII asr o'rtalarida Vena klassik maktabi vakillari ijodida shakllandi. Vena bastakorlari musiqaning tabiati, tempi va mavzuni rivojlantirish usullari bilan bir-biridan farq qiluvchi to'rt qismdan iborat sonata-simfonik siklini yaratdilar. [2]

Dramatik mazmun bilan to'ldirilgan birinchi qism sonata shaklida bo'lib, odatda tez sur'atda ijro etiladi ba'zi hollarda sekin tempdagi kirish qismi bilan ham boshlanishi mumkin. Ikkinchi qism sokin harakterda bo'ladi va bu qismni asarning lirik markazi deyishimiz mumkin. Uchinchi qism ikkinchisidan farqli o'laroq: jonli,harakatchan, quvnoq harakterga ega. XIX asr boshlarigacha. bastakorlar bu qismda asosan menuet shaklidan foydalanganlar (fr. menuet, - "kichik"). Keyinchalik bu shakl tez tempda ijro etiladigan mazmunan o'ynoqi, kichik vokal yoki instrumental asar skertso (italyancha scherzo - "hazil") bilan almashtirildi. To'rtinchi qism - simfoniyaning finali bo'lib, odatda tez tempda ifodalanadi va asar mavzulari va obrazlarini umumlashtiradi.

### **Sonata shakli**

Eng murakkab va mazmunan boy musiqiy shakllardan biri sonata XVIII asrning birinchi yarmida shakllana boshladi. va XVIII asrning ikkinchi yarmida Vena klassik maktabi kompozitorlari asarlarida to'liq shaklga ega bo'ldi. [3]

Sonata shakli - musiqiy materialni taqdim etish tamoyili bo'lib, asardagi mavzu va badiiy tasvirlarning o'zaro ta'sirini ifoda etadi. Mavzular - asosiy va yondosh- bir-biriga qarama-qarshi yoki bir-birini to'ldiradi. Mavzular rivoji uch qism: ekspozitsiya, rivojlov va reprizadan iborat bo'ladi. Bosh mavzu ekspozitsiyada (lot. expositio - "taqdimot, namoyish") paydo bo'ladi va asosiy tonallikda yangraydi, bu butun kompozitsiyaning tonalligini belgilaydi. Yondosh mavzu boshqa tonallikda kelishi va mavzular o'rtasida qarama-qarshilikni korsatishi mumkin. Rivojlov qismida mavzular yanada rivojlantiriladi va ular o'zaro keskin qarama-qarshilikka kirishishadi. Bir mavzu boshqasidan ustun kelishi yoki "raqib"iga erkin harakatni taqdim etishi, ikkala mavzu ham boshqacha ko'rinishda, masalan, ular turli xil asboblar tarkibi tomonidan ijro etilishi yoki ular xarakterini keskin o'zgartirishi mumkin. Uchinchi qism repriza (fransuzcha reprendre - "yangilash, takrorlash")da mavzular bir qarashda asl holatiga qaytadi, biroq, yondosh mavzu allaqachon asosiy tonallikda eshitiladi va asosiy mavzu bilan birgalikda keladi. Reprizada mavzular ekspozitsiya va rivojlov tajribasi bilan boyitiladi. Rivojlov natijalari ba'zan qo'shimcha koda qismida belgilanadi. Sonata shakli odatda sonata va simfoniyaning birinchi qismida, shuningdek (kichik o'zgarishlar bilan) ikkinchi qismda va finalda qo'llaniladi.

### **Sonata**

Instrumental musiqaning asosiy janrlaridan biri bu sonatadir (italyancha, sonare - "yangramoq"). Sonata asosan uch yoki to'rt qismli shaklda ifodalanadi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi kompozitorlar ijodida bir qismli sonatalarni ham ko'rishimiz mumkin. Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodida simfoniya singari sonata ham o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Simfoniya bilan farqli o'laroq, sonata bitta cholg'u, (odatda fortepiano) uchun mo'ljallangan asar hisoblanadi. Bu janrdagi asarlarning birinchi qismi sonata shaklida yoziladi va asarning asosiy musiqiy mavzulari keltiriladi. Sokin va vazmin sur'atda ijro qilinadigan ikkinchi qism birinchisidan keskin farq qiladi. Uchinchi qism - final, tez sur'atda ijro etiladi. U asar mazmunini xulosalaydi va nihoyat asarning umumiy xarakterini belgilab beradi. [4]

### **F.Y. Gaydn - Vena klassik maktabi asoschisi.**

Simfoniya, torli kvartet va klavier sonata kabi janrlarning gullab-yashnashi Gaydn ijodi bilan bog'liq. Frans Yozef Gaydn Avstriyaning Rorau qishlog'ida tavallud topgan. Sakkiz yoshidan Venadagi Avliyo Stefan kapellasida kuylay boshladi. Bo'lajak bastakor notalarni nusxalash, organ, klavier va skripka chalish orqali pul topardi. O'n yetti yoshida Gaydn ovozi yo'qotgani sabab cherkovdan haydaldi. To'rt yil o'tgach, u mashhur italyan opera bastakori Nikola Porpor bilan hamkorlikda ish boshladi. Kompozitor Gaydnning iqtidorini qadrlardi va o'z bilimlari bilan bo'lishdi.

1761 yilda Gaydn boy Vengriya knyazlari Esterxazi xizmatiga kirdi va ularning saroyida deyarli o'ttiz yil davomida bastakor va cherkov rahbari sifatida ishladi. 1790 yilda cherkov tarqatib yuborildi, lekin Gaydn ish haqi va kapelmeyster lavozimini saqlab qoldi. Bu kompozitorga Vena shahrida qolish, sayohat qilish va konsertlar berish imkoniyatini berdi. U Yevropa shon-shuhratini qozondi, uning asarlari zamondoshlari tomonidan qadrlanardi - bastakor ko'plab faxriy unvonlar sohibi bo'ldi. Jozef Gaydn simfoniyaning "otasi" deb atalgan. Aynan uning ijodida simfoniya instrumental musiqaning yetakchi janriga aylandi.

Instrumental musiqadan tashqari, Gaydn opera va oratoriya janriga murojaat qildi “Dunyoning yaratilishi”(1798) va “Yil fasllari” (1801) oratoriyalari hamda 1796—1802-yillarda yaratilgan messalar Gaydn ijodining cho’qqisidir.

### **Musiqiy daho - V.A. Motsart**

Vena klassik maktabida Motsart ijodi alohida o'rin tutadi. Ma’rifatchilik davri g’oyalari ta’siri ostida kamol topgan Motsartning ijodi XVIII asrning badiiy cho’qqilaridan biri hisoblanadi. Motsart Avstriyaning Zaltsburg shahrida tavallud topdi. Ajoyib musiqiy eshitish qobiliyati va xotirasiga ega bo’lgan Motsart erta yoshida klavesin chalishni o’rgangan va besh yoshida u o’zining birinchi musiqiy kompozitsiyalarini yoza boshlagan. Bo’lajak bastakorning birinchi ustozu uning otasi Leopold Motsart, Zalsburg arxiyepiskopi cherkovida musiqachi bo’lgan. Motsart nafaqat klavesinda, balki organ va skripkada ham mohir sozanda bo’lgan. U ajoyib improvizator sifatida ham mashhur edi, olti yoshidan boshlab u yevropa boylab gastrollarda bo’ldi. O’n bir yoshida u birinchi “Apollon va Giosint” operasini yaratdi va o’n to’rt yoshida Milan teatrida o’zining Pontus qiroli Mitridatlar operasining premyerasida dirijyorlik qildi. Motsart deyarli barcha musiqa janrlariga murojaat etib, 600 ga yaqin asar yaratgan. Musiqa tarixida go’zallik va mukammal garmoniya timsoli sifatida o’z nomini qoldirgan. Mozart operaning yangi turlarini yaratgan. „Figaroning uylanishi“ opera-komediyasi (1786), „Don Juan“ opera-dramasi (1787), „Sehrli nay“ milliy opera-ertagi (1791) (jami 17 ta) jahon musiqali teatri xazinasining durdonalariga aylangan. Bulardan „Zaida“ (1780), „Haramdan olib qochish“ (1782), „Qohira g’ozi“ (1783) kabi operalarida sharq mavzulariga murojaat qilgan. Mozart ijodida simfoniya (50 ga yaqin), cholg’u konsert (40 ga yaqin), torli kvartet (23 ta), fortepiano sonatasi (21 ta) rivoj topdi. Mozart, shuningdek, turli cholg’u asarlar, kantata, messa, kamer ansambllari muallifi hamdir.

### **L. van Betxoven ijodi.**

“Musiqa inson qalbida olov yoqib yuborishi kerak” – bu so’zlar buyuk nemis bastakori Lyudvig van Betxovenga tegishli bo’lib, uning asarlari jahon musiqasi madaniyatining eng yuqori cho’qqilarini zabt etdi. [5] Ludvig van Betxoven Germaniyaning Bonn shahrida saroy musiqachisi oilasida tug’ilgan. U bolaligidan otasining rahbarligida musiqa bilan shug’ullana boshlagan. 1792 yilda Betxoven Venaga ko’chib o’tdi va u Y.Gaydn, I.G. Albrextsberger, A. Salieri kabi davrining eng yirik musiqachilaridan musiqa saboqlarini olgan. Albrextsberger Betxovenni Gendel va Bax asarlari bilan tanishtirdi. Shu tariqa bastakorning musiqiy garmoniya va polifoniya haqidagi ajoyib bilimlari shakllandi.

Tez orada kompozitor o’zining erkin va ta’sirchan, yangi ijro uslubi bilan iste’dodli pianinochi, badixachi-improvizator sifatida tanilgan. Venada (1795–1800) yaratgan fortepiano konsertlari, sakkizinchi „Patetik“ fortepiano sonatasi, kvartetlari, birinchichi simfoniya, „Prometeyning yaratmalari“ baletidayoq Bethovenga xos, Buyuk fransuz inqilobi g’oyalari ta’siri ostida shakllangan ijodiy uslub ko’zga tashlandi. 27 yoshidan qulog’i og’irlashib, keyinchalik butunlay kar bulib qolsada, ichki uquv, his-tuyg’u bilan bir talay asarlar yaratdi, dirijyorlik qildi. Beethoven ijodi, ayniqsa 1801–1812-yillarda kamol topdi. Qahramonlik va demokratizm ruxi bilan yug’rilgan uchinchi (“Qahramonnoma”), beshinchi simfoniyalari, “Fidelio” operasi, I. Gyotening “Egmont” fojeasiga yozgan musiqasi, “Appassionata” fortepiano sonatasi, skripka va fortepiano uchun “Kreyserov” sonatasi mashhur. Chuqur fojiaviylik va adolat tantanasiga ishonch ruxi bilan sug’orilgan 9-chi simfoniya Beethoven ijodining cho’qqisidir.

So'nggi asarlari (28-32 fortepiano sonatalari, 12-16 kvartetlari, bagatellar)da kompozitorning yangi musiqiy ifoda vositalari topishga intilishi seziladi.

Ijodida turli (ingliz, venger, italyan, nemis, polyak, rus, ukrain) xalq kuylarini qayta ishlagan, Sharq mavzulariga murojaat qilgan (Sa'diy she'rlariga 2 kanon). Betxoven simfoniyalari, fortepiano va skripka konsertlari, bir talay fortepiano va skripka sonatalari bugungi kunda jahon sahnalarida yuksak mahorat bilan ijro etilmoqda. [5]

Shunday qilib ma'rifatparvarlik va Buyuk Fransiya inqilobi g'oyalari ta'sirida shakllangan bu yo'nalishning muhim ijodiy belgilari kelajakka ishonch, voqelikni taraqqiyot jarayonida ko'rsatish, insonparvarlik va xalqchilik bo'lgan. Vena klassik maktabi kompozitorlari professional va xalq musiqasi rivoji tajribasini umumlashtirdilar va universal musiqa tilini ishlab chiqdilar.Ularning ijodida simfoniya, sonata, konsert, kvartet kabi janrlar o'zining mumtoz shaklini topdi. Yangi xildagi opera hamda simfonik orkestrlar vujudga keldi va opera janri isloh qilindi. [6] Vena klassik maktabi kompozitorlari musiqa san'atining keyingi rivojiga barakali ta'sir ko'rsatib, turli milliy kompozitorlik maktablari yuzaga kelishida muhim rol o'ynab kelmoqda.

### References:

1. A.X. Trigulova. Xorijiy musiqa adabiyoti. T.: "ILM ZIYO" - 2016;
2. О.Н.Никитина История музыки: учеб.-метод. пособие. 2-е изд. /сост. Изд.центр «Удм.ун-т», 2018.
3. Гуревич Е. История зарубежной музыки. 2-е изд.- М., 2000.
4. Музыкальная энциклопедия. Выпуск 1-6, -М.: Музыка, 1974,
5. S.Begmatov. 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T: 2017.
6. Э.Бюкен Музыка эпохи рококо и классицизма М.1934.